2026-yil
6-son

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI

Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

MUNDARIJA

Jurayev B. O‘spirinlar huquqiy dunyoqarashini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarning o‘ziga xos xususiyatlari……..	**8**
Karimov X. Sportchilarni bo‘lajak musobaqalarga tayyorlashning psixologik asoslari.....	14
Maxmudova O. O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari asosidagi ijodiy rivojlanish yo‘nalishining mazmun-mohiyati……...	23
Parpiyva N.T. Matematika o‘qitish metodikasi fanida kombinatorika elementlarini o‘qitishning noan’anaviy usullari…….	34
Maxmudova M.A., Tilovov I.Q. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini raqamli ta’lim muhitida shakllantirish metodikasi …….	41
Авазов К.Х. Национальная безопасность в Центральной Азии: системный анализ современных проблем…….	49
Mamatova G.A. Badiiy matn ona tilini produktiv o‘qitish vositasi sifatida……...	61
Asamatdinova J. Qaraqalpaqstan Respublikasi qánigelestirilgen mekteplerinde filologiya pánlerin oqitiwda pedagogikalíq qádiryatlardi qáliplestiriw.....	67
Батыралиева Ш.П. Современные подходы к развитию духовно-нравственной деятельности студентов……	73
Norbosheva M., Abduyeva N. O‘smirlik davrida stress va uni boshqarish usullari…….	80
Ishankulova G.B. O‘zbek oilalarida gender munosabatlar namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari.....	87
Jabborova M. T. O‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatishda differensial va individual yondashuvlarning samaradorligi	93
Yunusova D. X. Xalq pedagogikasi an’analarining boshlang‘ich ta’limdagi tarbiyaviy imkoniyatlari ……..	100
Azimova N. N. Talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishda milliy madaniy qadriyatlarning pedagogik imkoniyatlari	109
Akramov D. I. Advancing global business management through digital innovations and cultural dynamics: prospects and challenges ……..	116
Nuriddinov B. B. Advancing global business management through digital innovations and cultural dynamics: prospects and challenges ……..	123

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

UDK 378.016:39

TALABALARNING O‘QUV TASHABBUSKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY MADANIY QADRIYATLARNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Azimova Nilufar Nuriddinovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Xorijiy tillar ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishda milliy madaniy qadriyatlarning pedagogik imkoniyatlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda tizimli, aksiologik, madaniyatshunoslik hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida milliy qadriyatlarning pedagogik salohiyati ochib berilgan. Shuningdek, milliy madaniyat asosida o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, innovatsion shakllari va istiqbollari yoritilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim jarayonida milliy qadriyatlardan samarali foydalanish talabalarning o‘quv faolligi va tashabbuskorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘quv tashabbuskorligi, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar, pedagogik imkoniyatlar, motivatsiya, oliy ta’lim, ma’naviy tarbiya, pedagogik mexanizm, talaba shaxsi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ УЧЕБНОЙ ИНИЦИАТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье проведён теоретический анализ педагогических возможностей национально-культурных ценностей в развитии учебной инициативности студентов. Проанализированы мотивационные, воспитательные, развивающие и коммуникативные возможности национально-культурных ценностей, а также обоснована их роль в развитии учебной инициативности студентов. Рассмотрены педагогические механизмы, инновационные формы и перспективы организации образовательного процесса на основе национальной культуры в высших учебных заведениях. Результаты исследования показывают, что образовательная среда, основанная на национальных ценностях, способствует развитию учебной активности, самостоятельного мышления и инициативности студентов.

Ключевые слова**:** учебная инициативность, национальная культура, национальные ценности, педагогические возможности, мотивация, высшее

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

образование, личность студента, духовное воспитание, качество образования.

PEDAGOGICAL POTENTIAL OF NATIONAL CULTURAL VALUES IN DEVELOPING STUDENTS' LEARNING INITIATIVE

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the pedagogical potential of national cultural values in developing students' learning initiative. In modern higher education, one of the key priorities is to prepare independent, creative, proactive, and competitive specialists. The paper also highlights pedagogical mechanisms, innovative forms, and future prospects for organizing educational processes based on national culture in higher education institutions. The findings indicate that an educational environment grounded in national values contributes to the development of students' learning activity, independent thinking, and initiative.

Keywords: learning initiative, national culture, national values, pedagogical potential, motivation, higher education, student personality, moral education, quality of education.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tubdan yangilanib bormoqda. Jamiyat taraqqiyoti va iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichi nafaqat chuqur kasbiy bilimlarga ega, balki mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, innovatsion faoliyat yurita oladigan va tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Shu sababli talabalarda o'quv tashabbuskorligini rivojlantirish oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'quv tashabbuskorligi talabaning ta'lim jarayonidagi faol pozitsiyasi, mustaqil bilim olishga intilishi, muammolarni hal etishda yangi g'oyalarni ilgari surishi va o'z faoliyatini samarali tashkil etish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Mazkur sifatning shakllanishi shaxsning motivatsion sohasi, qadriyatlar tizimi hamda ta'lim muhiti bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan talabalarning o'quv tashabbuskorligini rivojlantirishda milliy madaniy qadriyatlarning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shaxs faolligi va tashabbuskorligini rivojlantirish muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan. L.S. Vygotskiy shaxs rivojlanishida ijtimoiy-madaniy muhitning hal qiluvchi rol o'ynashini asoslab bergan. Uning nazariyasiga ko'ra, insonning intellektual rivojlanishi madaniy tajribalarni o'zlashtirish jarayonida amalga oshadi.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

A.N. Leontev faoliyat nazariyasida shaxs faolligini motivlar va ehtiyojlar tizimi bilan bog‘laydi. Olimning fikricha, har qanday faoliyatning samaradorligi shaxsning ichki motivlari va qadriyatlariga bevosita bog‘liqdir.

J. Dewey ta’limni amaliy faoliyat bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlab, talabani bilimlarni faol o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida talqin etadi. K. Rogers esa shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasida qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhitning ahamiyatini asoslab beradi.

Milliy pedagogikada A. Avloniy, M. Quronov, O. Musurmonova, N. Egamberdiyeva, J. Hasanboyev va boshqa olimlar milliy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq qilganlar. Biroq talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishda milliy madaniy qadriyatlarning pedagogik salohiyati yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqotda tizimli, aksiologik, madaniyatshunoslik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanildi.

Tizimli yondashuv o‘quv tashabbuskorligini talaba shaxsining murakkab integral sifati sifatida o‘rganish imkonini beradi. Aksiologik yondashuv shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Madaniyatshunoslik yondashuvi ta’lim jarayonini milliy madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa har bir talabaning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishga asoslanadi.

Mazkur metodologik yondashuvlarning integratsiyasi milliy qadriyatlarning talaba tashabbuskorligini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

Milliy madaniy qadriyatlar inson faoliyatining mazmuni, ijtimoiy yo‘nalishi va strategik maqsadlarini belgilovchi eng muhim pedagogik-psixologik omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida yosh avlodning dunyoqarashi, barqaror hayotiy pozitsiyasi, ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mentalitetini shakllantirishda ushbu qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Talabaning o‘z milliy madaniyatiga yuksak hurmat bilan qarashi, tarixiy-ilmiy merosni chuqur qadrlashi va ma’naviy mezonlarni shaxsiy ehtiyoj sifatida anglab yetishi uning ta’lim jarayoniga, ilm olishga bo‘lgan sub’ektiv munosabatini ijobiy tomonga tubdan transformatsiya qiladi. Buning natijasida talaba an’anaviy o‘quv faoliyatida shunchaki passiv axborot qabul qiluvchi reaktiv ob’ektdan mustaqil qaror qabul qiluvchi, innovatsion g‘oyalarni dadil ilgari suruvchi va o‘quv-tadqiqot jarayonlarida proaktiv faollik ko‘rsatuvchi yetakchi sub’ektga aylanadi. Milliy qadriyatlar zaminida tarkib topgan aksiologik pozitsiya talabalarda o‘quv tashabbuskorligining muhim tarkibiy qismlari hisoblangan yuksak ijtimoiy mas’uliyat, kreativ mehnatsevarlik, ichki intizom va aniq maqsadga intiluvchanlik kabi professional-shaxsiy sifatlarni tizimli ravishda rivojlantiradi.

Ushbu jarayonda milliy madaniyat talabalarda ta’limga bo‘lgan barqaror ichki ehtiyojni shakllantirish orqali o‘zining kuchli motivatsion imkoniyatlarini namoyon etadi. O‘z xalqining boy madaniy, falsafiy va intellektual merosi bilan

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

yaqindan tanishgan talaba bilim olishning nafaqat utilitar, balki yuksak ijtimoiy hamda shaxsiy ahamiyatini chuqurroq anglaydi, bu esa uning ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar tarkibida mujassam bo‘lgan vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy andisha, bag‘rikenglik va mehnatsevarlik kabi invariant fazilatlar talabalarning ma’naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qiluvchi tarbiyaviy imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Mazkur ma’naviy etuklik muhiti talabalarni jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan ta’limiy loyihalarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga undaydi. Rivojlantiruvchi imkoniyatlar nuqtai nazaridan yondashilganda, ta’lim mazmuniga integratsiya qilingan milliy madaniyat bilan bog‘liq muammoli va loyihaviy tadqiqot topshiriqlari talabalarni faol mustaqil izlanishga, hodisalarga nisbatan tanqidiy, tizimli va kreativ fikrlashga hamda nostandart ilmiy yechimlar topishga undaydi. Kommunikativ imkoniyatlar esa o‘zaro hurmat, jamoaviylik ва muloqot odobi kabi milliy qadriyatlar asosida shakllangan nutqiy hamda ijtimoiy muloqot madaniyati orqali namoyon bo‘lib, talabalarning o‘quv hamjamiyatida samarali hamkorlikda ishlash, erkin fikr almashish va jamoaviy faoliyatda yorqin tashabbus ko‘rsatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Milliy qadriyatlarning pedagogik muhitda talaba shaxsiga ko‘rsatadigan tizimli ta’siri va ularda o‘quv tashabbuskorligini shakllantirish jarayoni uzviy bog‘liq bo‘lgan to‘rtta asosiy pedagogik-psixologik mexanizm orqali real voqeolikka aylanadi. Birinchi navbatda, identifikatsion mexanizm ishga tushib, u talabaning o‘zini muayyan etnomadaniy hamjamiyat a’zosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tashuvchisi hamda ularni kelajakka uzatuvchi voris sifatida anglashiga xizmat qiladi, bu esa individual akademik intilishlarni global ijtimoiy maqsadlar bilan uyg‘unlashtiradi. Motivatsion mexanizm milliy madaniyat elementlarining ta’lim mazmuniga singdirilishi orqali tashqi pedagogik ta’sir va rag‘batlarning ichki ehtiyojga hamda proaktiv intilishlarga aylanish jarayonini ta’minlaydi va ta’limga bo‘lgan kognitiv qiziqishni maksimal darajada kuchaytiradi. Refleksiv mexanizm esa talaba tomonidan o‘zlashtirilgan ma’naviy-axloqiy prinsiplar prizmasi orqali o‘zining intellektual imkoniyatlari, o‘quv faoliyati samaradorligi va erishgan natijalarini tanqidiy-tahliliy baholash hamda o‘z ustida ishlash orqali shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini mustaqil belgilash imkonini yaratadi. Nihoyat, kommunikativ mexanizm shaxslararo va madaniyatlararo muloqot muhitida hamkorlik, bag‘rikenglik va o‘zaro yordam prinsiplarini yuzaga keltirib, sub’ekt-sub’ekt munosabatlariga asoslangan dialogik muhitni ta’minlaydi hamda jamoaviy o‘quv va innovatsion faoliyatda tashabbuskorlikni harakatga keltiruvchi yetakchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur mexanizmlar o‘zaro bog‘liq holda talabalarning o‘quv tashabbuskorligini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, keys-stadi, raqamli ta’lim texnologiyalari va interaktiv metodlar milliy qadriyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali vositalari hisoblanadi.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

Talabalarni milliy madaniy merosga oid loyihalar, ilmiy izlanishlar va ijodiy ishlarga jalb etish ularning mustaqil faoliyatini rivojlantiradi. Virtual muzeylar, elektron kutubxonalar va multimedia resurslaridan foydalanish esa ta'limning zamonaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Taklif etilayotgan model quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Maqsadli komponent;
2. Motivatsion komponent;
3. Mazmuniy komponent;
4. Faoliyat komponenti;
5. Refleksiv-baholash komponenti;
6. Natijaviy komponent.

Mazkur model asosida tashkil etilgan pedagogik faoliyat talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash va yosh avlodning ma'naviy immunitetini turli yot g‘oyalarga qarshi mustahkamlash zamonaviy oliy ta'lim tizimining oldida turgan eng dolzarb strategik vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarining o‘quv-uslubiy va ta'lim dasturlarini milliy madaniyat elementlari hamda qadriyatlari bilan tizimli ravishda boyitish, fanlararo integratsiyani har tomonlama kuchaytirish va zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng qo‘llash ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Zero, faqatgina an'anaviy milliy qadriyatlar va zamonaviy kasbiy kompetensiyalarning o‘zaro uyg‘unligi hamda dialektik birligi asosida tashkil etilgan integrativ ta'lim jarayonigina bugungi kun talablariga to‘liq javob bera oladigan, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh, ma'naviy jihatdan barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli va yuqori darajada tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlashga bevosita xizmat qiladi.

Ushbu yo‘nalishda olib borilgan pedagogik va psixologik nazariy tahlillar natijalari milliy madaniy qadriyatlarning talabalarda o‘quv tashabbuskorligini dinamik rivojlantirishda fundamental o‘rin tutuvchi muhim determinat va yetakchi pedagogik omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Mazkur aksiologik manbalar talaba shaxsining intellektual faolligini harakatga keltirib, uning ta'lim olishga bo‘lgan barqaror ichki motivatsiyasini maksimal darajada kuchaytiradi, ijtimoiy-kasbiy faolligini oshiradi hamda shaxsni mustaqil va uzluksiz ta'lim faoliyatiga tizimli ravishda yo‘naltiradi. Empirik tadqiqotlar va amaliy pedagogik tajribalar natijalari ham milliy qadriyatlarga asoslangan kreativ ta'lim muhitining shakllantirilishi talabalarda shaxsiy va kasbiy yetuklikning mezoni hisoblangan yuksak ijtimoiy mas'uliyat, kreativ va divergent fikrlash, chuqur refleksivlik hamda o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish (self-development) kompetensiyalarini muvaffaqiyatli hamda yuqori samaradorlik bilan shakllantirishini yaqqol ko‘rsatmoqda.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

Talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Milliy madaniy qadriyatlar ushbu jarayonning muhim pedagogik omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarning motivatsion, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va kommunikativ imkoniyatlari talabalarning faol o‘quv pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilishini tasdiqladi. Shuningdek, milliy madaniyat asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va tashabbuskorligini rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Kelgusida mazkur muammoni eksperimental tadqiqotlar asosida o‘rganish, o‘quv tashabbuskorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda pedagogik texnologiyalar samaradorligini aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF–60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
5. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – 240 b.
6. Musurmonova O. Oila ma’naviyati va milliy tarbiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 256 b.
7. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M. va boshq. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 480 b.
8. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Fan, 2015. – 320 b.
9. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2017. – 280 b.
10. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
11. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
12. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016. – 352 p.
13. U.Qodirov. O‘qituvchining psixologik kompetensiyasiga doir ayrim mulohazalar. “Zamonaviy ta’lim” jurnali, 2015-yil 4-son.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:
Muqimov Alisher

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari